



## INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA UNING SAMARADORLIGI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasida mudiri

Gulrux Ostonova Shuxrat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

orcid.org/0009-0007-4903-960X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15392982>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10- May 2025 yil

Nashr qilindi: 13- May 2025 yil

### KEYWORDS

*Investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit, kapital qo'yilmalar, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy samaradorlik*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilish jarayoni, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishning strategik yo'nalishlari, ularning natijalari hamda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Investitsiyalarni jalb qilish har qanday biznes yoki loyiha uchun muhim jarayon hisoblanadi. Muvaffaqiyatli investitsiya jalb qilish biznesni kengaytirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va bozorda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi. Bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalar iqtisodiy o'sishning rivojlanishning eng muhim omillaridan biri bulib kelmoqda. Mamlakatlar, korxonalar va tadbirkorlar kapitalni jalb qilish orqali o'z faoliyatlarini kengaytirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati, usullari va uning samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

Investitsiyalar iqtisodiyotning turli jabhalariga ta'sir qiladi. Ular orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, infratuzilma rivojlanadi va ishlab chiqarish hajmi oshadi. O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident tomonidan qabul qilingan qarorlar va dasturlarni alohida sanab otadigan bo'lsak:

PQ-4135-sonli qaror (28.01.2019) "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida". Ushbu qaror bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi tashkil etildi.

PQ-459-sonli qaror (28.12.2022) "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida". Ushbu dastur xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha strategiyani belgilaydi.

Xorijiy investorlar kengashining tashkil etilishi (13.11.2019) "Xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida Prezident huzurida Xorijiy investorlar kengashi tashkil etilgan.

Eng avvalo investitsiyalarni jalb qilishdan oldin ishonchli biznes reja – har qanday investor oldindan biznesning istiqboli, daromadlilikini va risklarini bilishi kerak.

To'g'ri auditoriyani tanlash- barcha investorlar ham har qanday sohada investitsiya qilishga tayyor emas. Shu sababli, aynan sohasigaga mos investorlarni topish kerak.

Yana bir muhim tarafi shaffoflik va ishonchlilik-investorlarga tanlangan biznes reja malumotlarini ochiq va aniq ko'rsata bilish, va ularning ishonchini qozonish investitsiyalarni jalb qilishning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Shu o'rinda investitsiyalarni jalb qilish turli manbalari va ularning turlarini aniqlash ham bu sohada muvaffaqiyatga olib kelish uchun muhim sanaladi. Quyida eng keng tarqalgan manbalar keltirilgan:

a. Bank kreditlari. Bank kreditlari kichik va o'rta biznes uchun asosiy moliyalashtirilgan manbalaridan biri, ularning afzalliklari rasmiy tartibga olinganligi, aniq foiz stavkalari va to'lov muddatlariga egaligi hisoblansa, bank kreditlarini katta garov talablari, yuqori foiz stavkalarining borligi ularning kamchiliklari hisoblanadi.

b. Venchur kapitali. Bu usul startaplar va yuqori riskli loyihalar uchun mos keladi. Venchur kapitalistlar biznesga investitsiya qilib, uning muvaffaqiyatidan ulush olishadi. Afzalliklari: innovatsion bizneslar uchun imkoniyat, katta miqdorda investitsiya olish imkoni hisoblanadi.

c. Xususiy investorlar (biznes farishtalari) Sarmoyadorlar bo'lib, ular yangi bizneslarga o'z kapitalini kiritadilar. Bular tajribali tadbirkorlar hisoblanishadi. Sarmoyadorlarning tez qaror qabul qilishi, tajriba va maslahatlar berishi bilan samarali hisoblanadi. Yakunida ularga investorlar tomonidan katta ulush ajratiladi.

d. Davlat grantlari va subsidiyalar. Bu davlat tomonidan innovatsiyalar yoki kichik bizneslarning qullab- quvvatlash maqsadida ajratiladigan moliyaviy ko'mak hisoblanib, unda foizsiz mablag' olish imkoni bor. Qiyinchilik tarafi esa murakkab hujjatlar talab qilinishi va ajratilgan grant, subsidiyalarni qulga kiritish uchun raqobatning kuchli bo'lishi kerakligidir.

Investitsiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'sishga hissa qo'shadi:

1. Iqtisodiy o'sish – Investitsiyalar yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi.

2. Ish o'rinlarini yaratish- Yangi loyihalar natijasida bandlik darajasi oshadi.

3. Texnologik rivojlanish- Investitsiyalar ilmiy – texnik taraqqiyotga turtki bo'lib, innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish- Mamlakat iqtisodiyotiga

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining yashash sharoitlarining yanada yaxshilanishi va turmush farovonligini oshirilishida bevosita investitsiyalarning keng jalb qilinishi muhim o'rin tutadi. Bunga javoban davlatimiz rahbarining 2023-yil 18-yanvardagi "Eksport, investitsiya va mahalliy sanoatda 2024-yilda turgan vazifalar bo'yicha selector yig'ilishida : "Yagona to'g'ri yo'limiz – xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko'paytirish" deb alohida takidlab o'tdilar. Bugungi global hayotda rivojlanish tezligi va bunda iqtisodiy o'sish muhmligi har qadamda ko'zga tashlanmoqda. Shu boisdan, davlatimiz rahbari investitsiya, sanoat va eksportga bevosita mas'ul bo'lgan vazirliklar, idora, uyushma, chet eldagi vakolatxonalar hamda hudud rahbarlarining investitsiya yo'nalishiga mas'ul o'rinbosarlarining ushbu yo'nalishda olib borayotgan ishlari alohida o'rin tutishini aytib o'tdilar.

Xulosa. Investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Samarali investitsion muhit yaratish uchun mamlakatlar huquqiy, moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaxshilashi kerak. Xorijiy investitsiyalarni

jalb qilish strategiyalarini to'g'ri amalga oshirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish va innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin.

**Takliflar :**

Huquqiy islohotlarni davom ettirish- Investorlar uchun barqaror qonunchilik bazasini yaratish.

Investitsion muhitni yaxshilash uchun byukratik to'siqlarni kamaytirish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash.

Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish.

Xorijiy investorlar uchun qulay soliq rejimlarini joriy qilish.

Yangi innovatsion startaplarni qo'llab qo'llab -quvvatlash uchun maxsus investitsion jamg'armalar tashkil etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Жовлиева, Гульшаной. "DISTINCTIVE FEATURES OF TEACHING STUDENTS OF THE PEDAGOGICAL INSTITUTE METHODS USED IN MATHEMATICS LESSONS." Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок 1.3 (2025): 96-100.
2. X.Boqiyev G.A.Jovliyeva, Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda matematika fanini o'qitish texnologiyasi, xalq ta'limi, 2024/12, 79-81.
3. G. Jovliyeva, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv usullari, Pedagog, 2023/6, 8-10.
4. Г.А. Жовлиева, Differensial tenglamalarga oid tushunchalarni o'qitishning o'ziga xosligi, Belarus international scientific research conference, 2023/6, 2023/6.
5. Gulshanoy Jovliyeva, Methodological-mathematical training of primary school teachers and duties, Pedagog, 2023/2, 166-168.
6. Mirzayeva, Shahlo Ruzmat-qizi. "The importance of studying emotional intelligence in medical students." Journal of Innovation, Creativity and Art (2023): 215-220
7. Dilobar Kuchkarovna Xoshimova, Talabaning kreativ qobiliyatini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (Aniq fanlarni o'qitish misolida), Xalq ta'limi, 2024/2, 2024/2.
8. Dilobar Kuchkarovna Xoshimova, Directional derivative and gradient of a multivariable function, International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities, 2024/1/26, 1-9.
9. Khoshimova, D. "THE USING OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING EXACT SCIENCES AND FORMING THE STUDENT'S CREATIVE ABILITY." Science and innovation 3.B1 (2024): 5-13.
10. K.Z.Negmatova I.N.Ro'zimurodov, D.K.Xoshimova, Ehtimollik va statistika, 2024, 156.
11. Khoshimova. D.K, Use of pedagogical technology in explanation of the Gauss-Jordan method of solving the system of linear equations, WEB OF SCIENTIST, 2024/1, 50-54.
12. Raxmatov, Sherqo'zi Olimovich. "masofaviy ta'lim dasturlarining ta'lim tizimida afzalliklari va amaliy ahamiyati (moodle, scorm, tutor dasturlari misolida)." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.11 (2021): 1263-1270.
13. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, O'ZBEKISTON ELEKTRON SAVDO TIZIMIDA MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR, Science and innovation in the education system, 2024/4/8, 16-22.

14. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/4/8, 11-14.
15. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, Raimbek Muzaffarov, ELEKTRON TIJORATNING AN'ANAVIY SAVDO TURLARI BILAN XARAKTERLI XUSUSIYATLARI, Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024/4/8, 14-18.
16. Raxmatov Sherqo'zi Akbar Kodirov, Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, Pedagogis Internatsional research, 2023/5/15, 69.
17. Kodirov, Akbar, Gulzor Qamariddinova, and Shahnoza Eshmurodova. "O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRUVCHI IQTISODIY VA MOLIYAVIY OMILLARINI O 'RGANISH." YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
18. Akbar Kodirov, Farangiz Kenjayeva, Marjona Yusupova, MAKTABLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ANIQ FAN MAVZULARINI OTISHDA ERISHILAYOTGAN YUTUQ VA KAMCHILIKLAR, Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 49-52.
19. Kodirov, Akbar Shuxratovich, and Muborak To'lg'in Qizi Nomozova. "MASOFAVIY TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLI ASOSLARI." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 753-756.
20. Kodirov, Akbar, Gulasal Ruziyeva, and Marjona Yusupova. "ELEKTRON QO 'LLANMALAR YARATISHDA AUTOPLAY DASTURIDAN FOYDALANISH VA IMKONIYATLARINI TA'LIM TIZIMDA TALQIN ETISH." Наука и технология в современном мире 3 (2024): 51-55.
21. Shuxratovich, Kodirov Akbar. "KATTA MA'LUMOT BAZALARINI PARALLEL ISHLOV BERISH USULLARINI VA MODELLARINI O'RGANISH." Journal of new century innovations 43 (2023): 93-95.
22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.
23. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 146-151.
24. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATSION USULLARI." Наука и инновация 2.38 (2024): 161-164.
25. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 288-290.